



UDK:371+616.831

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14650761>

**TALABA-YOSHLAR TASHABBUSLARINI
RAG'BATLANTIRISH VA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK
STRATEGIYALARI: TARIX VA ZAMON**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ СТИМУЛИРОВАНИЯ И
НАПРАВЛЕНИЯ ИНИЦИАТИВ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ:
ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ**

**PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR ENCOURAGING AND GUIDING
STUDENT YOUTH INITIATIVES: HISTORY AND TIME**

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich

*Farg'ona davlat universiteti pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti,
pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: umaqsudov1280@gmail.com / Tel.: (+998-90) 303-19-34

Annotatsiya.

Globallashuv va axborot texnologiyalari bilan bog'liq zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar sharoitida yoshlarni tarbiyalash va ta'lim berishga bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Talabalar tashabbuskorligining ahamiyati nafaqat ta'lim jarayonida, balki ijtimoiy-madaniy muhitda ham ortib bormoqda. Ushbu maqolada talabalar va yoshlar tashabbuskorligini rag'batlantirishning pedagogik strategiyalari, shuningdek, ularning shaxs rivojlanishi va umuman jamiyatga ta'siri Rossiya tajribasi XIX asrdan to XX asrning 90-yillari davrigacha tahlil qilinadi hamda muallif tomonidan analitik hulosalar berildi.

Kalit so'zlar: *tashabbuskorlik, tashabbus, muammo, tashabbuskorlikni rivojlantirish muammosi, talabalarning o'zini o'zi boshqarishi, shaxsning irodaviy sifati, oliy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik.*

Аннотация.

В условиях современных социально-экономических и культурных изменений, связанных с глобализацией и информационными технологиями, возникает необходимость пересмотра подходов к воспитанию и образованию молодежи. Значение студенческой инициативности возрастает не только в образовательном процессе, но и в социально-культурной среде. В данной статье анализируются педагогические стратегии стимулирования инициативности

студентов и молодежи, а также их влияние на развитие личности и общество в целом на основе российского опыта с XIX века до 90-х годов XX века, а также представлены аналитические выводы автора.

Ключевые слова: *инициативность, инициатива, проблема, проблема развития инициативности, студенческое самоуправление, волевое качество личности, высшее образование, профессиональная подготовка.*

Abstract.

In the context of modern socio-economic and cultural changes related to globalization and information technology, there is a need to reconsider approaches to youth education and upbringing. The importance of student initiative is increasing not only in the educational process but also in the socio-cultural environment. This article analyzes the pedagogical strategies for encouraging student and youth initiative, as well as their influence on personal development and society as a whole, examining the Russian experience from the 19th century to the 1990s. The author also provides analytical conclusions.

Keywords: *initiative, problem, issue of developing initiative, student self-governance, volitional qualities of an individual, higher education, professional training.*

KIRISH

Tashabbuskor, ijodiy salohiyatga ega va innovatsion o'zgarishlarga tayyor yoshlarning faol ishtiroki bo'lmasa, jamiyat va davlatning zamonaviy rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Global tahdidlar va texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi sharoitida yoshlarning salohiyatini ochish va ro'yobga chiqarishga imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni "Yoshlar muammolarini o'rganish va ta'lim olishini yechimini topish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi videoselektor yig'ilishida quyidagilarni ta'kidlagan: "Yoshlar – kelajagimiz, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini rag'batlantirish – davlatimizning eng muhim vazifalaridandir". Shunday ekan, talabalar va yoshlarning ijtimoiy, ilmiy, madaniy va tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirilgan tashabbuslari ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda ta'lim sohasi sezilarli darajada rivojlandi. Bu talab-yoshlarning o'z jamoalari bilan faol munosabatda bo'lishi va ijtimoiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan tashabbuslarda ishtirok etishi zarurligini ko'rsatdi.

Tashabbus (lotincha “Initiare” - boshlash) - yangi g'oyani ilgari surish va amalga oshirishda, muammoni yechishda tashabbuskorlik ko'rsatish; faoliyatning yangi shakllariga ichki intilish. Pedagogik lug'atda tashabbuskorlik shaxsning faol va mustaqil harakat qilish qobiliyati hamda moyilligi bilan tavsiflanadigan xususiyati sifatida talqin etiladi.

Yoshlarni o'zgarishlar uchun qodir vakillar sifatida tan olish, nafaqat talabalarga imkoniyat beradigan, balki ularning tashabbuskorligini rag'batlantiradigan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Lekin, ilmiy adabiyotlarning tarixiy-pedagogik tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tadqiqotchilar bolalar va yoshlarning ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishda uch davrni ajratadilar: boshlang'ich (1917-yilgacha); o'rta (1917-1991-yillar) va mustaqillikdan keyingi davri (1991-yildan bugungi kungacha). ushubu maqolani tayyorlash jarayonida ayrim manbaalar va adabiyotlar muamma yuzasidan keltirilgan davrla Rossiya tajribasi tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, XIX asr boshlarida Rossiyada oliy ta'lim sohasida yagona siyosat mavjud emas edi: oliy o'quv yurtlari turli idoralar tasarrufida bo'lib, ularning har biri o'z o'quv yurtlari rivojlanishini mustaqil ravishda belgilardi. Bizningcha, talabalar tashabbusi muammosini rivojlantirishning inqilobgacha davridan oldingi bosqichi Peterburg o'quv okrugi homiysi knyaz G.A. Shcherbatovning faoliyatidan boshlangan.

U “okrugni boshqarishda politsiya choralari emas, balki insoniyatning eng yaxshi tomonlariga murojaat qilishga va ayniqsa yoshlarga ishonch bildirishga asoslangan”. G.A.Shcherbatov talabalar kengashlarini tashkil etdi. Ular qisqa vaqt ichida bir qator tashabbuslarni amalga oshirganliklari tufayli mashhurlikka erishdilar. Birinchidan, kambag'al talabalar foydasiga o'tkaziladigan xayriya konsertlariga rahbarlik qila boshladilar. Ikkinchidan, talabalar to'plamini nashr etishni yo'lga qo'ydilar. Uchinchidan, kambag'al talabalar uchun kutubxona va kassa tashkil etdilar. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun “farmoyishchilar” talab qilinardi, ularni saylash belgilagan yig'ilishlarda amalga oshirilardi. Shunday qilib, Peterburg universitetining birinchi talabalar uyushmasi, talabalar tashabbuslarini amalga oshirish maydoniga aylangan bu tashkilot, yangi qoidalar qabul qilinishi tufayli emas, balki liberal hukumat doiralarida qo'llab-quvvatlangan bir shaxsning tashabbusi tufayli tashkiliy jihatdan shakllanishni boshladi. Biroq, siyosat o'zgarishi va knyaz G.A.Shcherbatov o'z lavozimini tark etishi bilanoq, uning faoliyatining barcha natijalari yo'q qilindi. Bu esa talabalar orasida o'z-o'zidan norozilik uyg'otdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi talabalar va professor-o'qituvchilarning hukumat e'tiborini o'z ehtiyojlariga qaratish uchun uzluksiz urinishlari bilan o'tdi. Ko'p marotaba arizalar bilan murojaat qilish, talabalar tashkilotlari va talabalar tashabbuslariga ruxsat olish uchun faol “qonunlashtirish” kurashi - bularning barchasi

samarasiz qoldi. Universitetlarda har qanday tartibsizliklar yuz berganda, hukumatning jazo siyosatining birinchi zarbasi talabalar jamiyatlariga qarshi qaratilgan, akademik zaminda mustahkamlangan bir necha qonuniy tashkilotlarni yo'q qilib yuborgan. Talabalarga o'quv xonalari, oshxonalar, teatr tomoshalari, konsertlar, ballar va ilmiy xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ommaviy yig'ilishlar tashkil etish, ommaviy nutqlar so'zlash, har qanday pul yig'implari (ya'ni amalda auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari barcha faoliyatlar) taqiqlanadi. Taqiqlarni buzganlik uchun talaba rahbariyatning qaroriga ko'ra hayfsan va karserda qamoqdan tortib, universitetdan haydalishtirish bo'lgan jazoga tortilishi mumkin edi. Shunday bo'lsa-da, XIX asrning 70-yillarida taraqqiyparvar ziyoli yoshlarning tashabbuslarini kuzatishimiz mumkin. Ular "xalq orasiga kirib borish"da namoyon bo'ldi: xalq hayotiga madaniyat va ta'limni olib kirish hamda xalq ommasining siyosiy ongini uyg'otishga qaratilgan edi. Inqilobiy xalqchilik nazariyotchilari M.A.Bakunin, P.L.Lavrov, P.N.Tkachevlar tarbiya muammolarini maxsus nazariy ishlab chiqish bilan shug'ullanmaganlar, lekin ularning asarlarida shaxsning tashabbuskorligi va faolligi masalalari ijtimoiy-siyosiy nazariya va inqilobiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqilgan.

XIX asrning 80-yillarida bu muammo P.L.Lavrov va N.K.Mixaylovskiylarning taraqqiyot nazariyasida rivojlantirildi. Ularning falsafiy qarashlarining markazida inson - ijodkor shaxs turadi. Bu shaxs ijtimoiy tuzumda zarur o'zgarishlarni amalga oshirish va o'z tashabbuslarini jamiyatda ro'yobga chiqarish qobiliyatiga ega bo'lib, ilmiy yutuqlar va atrofdagi dunyoni bilishda tanqidiy yondashuvga tayanadi. Ammo amalda faqat 1899-yildagi birinchi umumrossiya talabalar ish tashlashi, unda qariyb yigirma besh ming oliy ta'lim talabalari ishtirok etgan bo'lib, bu esa universitetlarning ahvolini va hukumatning talabalar tashabbuslariga munosabatini o'zgartirdi. Ko'p o'tmay "talabalarning korporativ harakatlari"ga ham ruxsat berildi: to'garak tuzishni xohlovchi talabalarning dastlabki maslahatlashuvlari, bunday istak haqida professor yoki rahbariyatga yo'llangan jamoaviy ariza, mansabdor shaxslarni saylash kabi tashabbuslari qo'llab quvvatlandi. Talabalarning o'z tashabbuslarini amalga oshirish huquqlari qonun bilan mustahkamlangandan so'ng: Ilmiy-adabiy mashg'ulotlar, san'at, hunarmandchilik va turli xil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish uchun talabalar to'garaklari, talabalar oshxonalar, kichik kassalari(o'zaro yordam, qarz-jamg'arma, moddiy yordam), kam ta'minlangan talabalar uchun ish topish bo'yicha homiylik xizmatlari, kutubxonalar va o'quv zallarini ochish, turli talabalar vakillik organlari, asosan fakultet sardorlari kengashlari tashkil etila boshladi.

XX asrning 20-yillari ta'limni tashkil etish usullariga yangicha yondashuvlarni izlash, jumladan, pedagoglarning o'zaro bog'liq bo'lgan mustaqillik, faollik va tashabbuskorlik muammolariga e'tiborini kuchaytirish bilan tavsiflanadi. O'ttizinchi yillardan oltmishinchi yillargacha ta'lim-tarbiya tizimidagi asosiy maqsad tashabbuskorni emas, balki ijrochilikni shakllantirish edi.

Tashabbuskorlikni rivojlantirish muammosi bo‘yicha psixologik va pedagogik tadqiqotlarning jadal o‘shishi XX asrning 60-yillarning oxiri 70-yillarning boshlarida kuzatildi. Psixologiyada tashabbus va tashabbuskorlik S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov, M.S.Govorov, N.D.Levitov va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan.

S.L.Rubinshteyn tashabbuskorlikni shaxsning eng muhim irodaviy sifatleri qatoriga kiritadi va uni “tashqi rag‘batni kutmay, o‘z ixtiyori bilan ishga yaxshi va oson kirishish qobiliyati” deb ta’riflaydi.

B.M.Teplov esa tashabbuskorlikni shaxsning irodaviy sifatlariga kiritmaydi, uni oldindan ko‘ra bilish va tezda yangi yechimlar topish qobiliyati sifatida talqin etadi. M.S. Govorov ham tashabbuskorlikni kognitiv jarayonlar bilan bog‘laydi.

80-yillarda tashabbuskorlikni rivojlantirish muammosi rus faylasuf pedagog, psixologlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Masalan: K.A.Abulxanova-Slavskaya, D.B.Bogoyavlenskaya, A.I.Krupnov kabi mahalliy psixologlar tadqiqotlarida yangi bosqichga ko‘tarilgan.

K.A.Abulxanova-Slavskaya tashabbuskorlikni shaxsiy jihatdan ko‘rib chiqib, “tashabbuskorlik qobiliyatini” rivojlantirish haqida fikr yuritadi. U o‘z asarlarida tashabbus va mas’uliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradigan shaxs tipologiyasini taklif etadi.

D.B.Bogoyavlenskaya intellektual tashabbusni o‘rganib, uni insonning aqliy faoliyatining berilgan va hal qilingan vazifa doirasidan tashqarida davom etishi deb ta’riflaydi, bu davom etish esa insonning amaliy ehtiyojlari yoki ishning tashqi bahosi bilan bog‘liq emas.

A.I.Krupnov tashabbuskorlikni ko‘p o‘lchovli-funksional yondashuv doirasida ko‘rib chiqadi va uni tashabbus jarayonini ta’minlaydigan, yangilikka, mavjud rag‘batlantirishdan ilgarilab ketishga undaydigan xususiyat sifatida tushunadi. Sovet davrining barcha talabalar tashabbuslarini tahlil qilar ekanmiz - qishloq xo‘jaligi ishlariga talabalar safarlari, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, “asr qurilishlari”, jamoat tartibini saqlash drujinalari - bularning barchasi ixtiyoriy-majburiy xarakterga ega bo‘lgan yoki ko‘proq davlat tashabbusi bilan amalga oshirilganini ko‘ramiz. Tarbiyaviy ish hatto “iliqlik” davrlarida ham mafkuraviy tus olgan, ish shakllari va usullari yuqoridan joriy etilgan.

Talabalar qiziqishlari va tashabbuslaridan chetlashish, talabalar o‘zini o‘zi boshqarishining rivojlanmaganligi, talabalar tashkilotlari orasida muqobil tanlovning yo‘qligi kuzatiladi. Biroq, ushbu davrning oxiriga kelib, mahalliy psixologlarning tashabbuskorlik muammosiga qiziqishi ortib borayotganini, uning ahamiyati asoslanganini ko‘ramiz.

90-yillarga kelib esa, S.S.Gil va S.V.Teterskiyning konsepsiyalari yoshlar tashabbusi haqidagi zamonaviy qarashlarni shakllantirishga katta hissa qo'shdi. Tashabbuskorlik turli soha va faoliyat turlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda belgilangan maqsadlarga erishish uchun sifat va miqdoriy usullardan foydalanildi. Sifatli tahlil pedagogik strategiyalar va yoshlar faolligi muammosi bo'yicha adabiyotlar sharhini o'z ichiga oldi. Miqdoriy tahlil Rossiyaning bir nechta universitetlari, universitetlarda talabalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi maqola va adabiyotlarga asoslangan, bu esa xorijda yoshlar tashabbuslarining qo'llab-quvvatlash o'tgan asrdagi xolati va uni hozirgi zamon faoliyati bilan qiyoslash imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda o'rganilayotgan masalaning turli jihatlarini davlat e'tiborida ekanligi, mamlakatda ishlab chiqilgan turli dasturlarida ham o'z aksini topgan. Ushbu muammoni o'rganishdagi adabiyotlar va milliy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, tashabbuskorlik tushunchasining yagona talqini mavjud emas: u shaxs xususiyati, axloqiy sifat, sa'y-harakatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Ushbu muammo uzoq yillik ilmiy an'anaga ega bo'lishiga qaramay, faqat hozirgi paytda unga davlat e'tibor qaratmoqda: jamiyatdagi hozirgi vaziyat yoshlar tashabbuskorligini rivojlantirish muammosining ahamiyatini belgilab bermoqda. Bu jarayonda talaba-yoshlarning alohida o'rni ta'kidlanadi, chunki ular bo'lajak mutaxassislarining salohiyatli imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy guruh hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari talaba-yoshlarning intilishlari va motivlariga mos keladigan pedagogik strategiyalarni joriy etishning muhimligini ko'rsatadi. Amaliy tajriba, hamkorlik va loyihaga asoslangan ta'limni rag'batlantiradigan muhitni yaratish orqali o'qituvchilar talabalarning o'z jamiyatlariga faol hissa qo'shuvchi salohiyatini yuzaga chiqarishlari mumkin. Biroq, bu strategiyalarni joriy etish sezilarli afzalliklarga ega bo'lsa-da, talaba-yoshlar duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklari ham mavjud. Bularga o'zgarishlarga qarshilik, cheklangan resurslar va o'qituvchilarni har tomonlama tayyorlash zarurati kiradi. Talabalar va yoshlar tashabbuslarini samarali qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim muassasalari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sarmoya kiritishlari, ularni ushbu pedagogik yondashuvlarni samarali qo'llash uchun zarur vositalar va bilimlar bilan ta'minlashlari lozim.

Bundan tashqari, o'qituvchilar hamda talabalar tashabbuskorligini rivojlantiradigan qulay muhitni yaratishlari juda muhim. Bu talabalarning hissasini tan olish va qadrlash, shuningdek, butun jarayon davomida yo'l-yo'riq ko'rsatish va rahbarlik qilishni, bilvosita faol ishtirok etishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, loyihaga asoslangan ta'limda teskari aloqaning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi; konstruktiv teskari aloqa talabalarga

o'z g'oyalarini takomillashtirish va rivojlanish tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari talaba tashabbuslarini rag'batlantirishga nisbatan kompleks yondashuvni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi. Bunda nafaqat zarur shart-sharoitlarni yaratish, balki talabalar va ta'lim muassasalari rahbariyati o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Samarali strategiyalar davrning talablari va talabalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, yoshlarning loyiha va tashabbuslarda faol ishtiroki fuqarolik mas'uliyati va yetakchilik fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi. B.S.Gerasimovanning (2021) ishi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, tashabbuskorlik loyihalarida qatnashayotgan talabalar o'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishadilar va mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talaba va yoshlar tashabbuslarini pedagogik strategiyalar orqali rag'batlantirish kelajak avlodni faol fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunning murakkab vaziyatlarida ta'lim tizimi oldida nafaqat kasbiy bilimlarni shakllantirish, balki talabalarning shaxsiy fazilatlarini, ularning ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Talabalar va yoshlar tashabbuslarini rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlar bilan ishlashning eng samarali yondashuv va usullarini aniqlash uchun ushbu yo'nalishni yanada chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi. Tajribaga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'qitish va loyihaga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlarini qo'llash orqali o'qituvchilar o'quvchilarning o'z salohiyatlarini kashf etishlari va ijodkorliklarini rivojlantirishlari uchun qulay sharoit yaratishlari mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu strategiyalarning talabalar ishtiroki va jamiyatga ta'siriga bo'lgan uzoq muddatli natijalarini o'rganishga qaratilishi lozim. Bu esa talabalarning tashabbuskorligi va faolligini shakllantirishda ta'limning o'zgartiruvchan kuchini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni "Yoshlar muammolarini o'rganish va ta'lim olishini yechimini topish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi videoselektor yig'ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz>

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 5.

3. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – М.:Мысль, 1991. – 296 с.
4. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. – Ростов-на-Дону, 1983. – 173 с.
5. Герасимова, Б.С. Роль студенческих инициатив в формировании гражданской ответственности молодежи. “Журнал современного образования”, 2021.3(2), 54-62.
6. Джуматаев, А.Р. Педагогические технологии в высшей школе: новые горизонты. “Научная платформа”, 2019. 5(1), 34-37.
7. Завьялов Д.А. Российское законодательство о студенческих организациях, 1855-1914/Д.А. Завьялов. // Правоведение. – 2006. – № 4. – С. 186-200.
8. Махсудов У.К., Шатунова О.В. Теоретические и практические аспекты повышения профессиональной компетентности педагогов и специалистов начального образования. *Science and innovation*, 2024. С. 304-309.
9. Maqsudov U., Gender yondashuv asosida talaba-yoshlarning tashabbuslarini rag'batlantirishning pedagogik-psixologik omillari. *O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari*, 2023, [1/3] ISSN 2181-7324. B. 116-118.
10. Сидорова, Н. П., Молодежные инициативы: от образования к практике. “Образование и общество”, 2020.2(4), 45-52.
11. Темиров Н.С., Махсудов У.К. Социальные и воспитательные факторы системы формирования национальных ценностей в вузе. (2023): 19-29.
12. Шевченко Е.С., Интеграция науки и образования: новые форматы взаимодействия. *Проблемы образования*, 2022. 1(6), 12-20.
13. Dörnyei Z. (2001). *Teaching and Researching Motivation*. Harlow, UK: Pearson Education.
14. Hattie J., Timperley H. (2007). *The Power of Feedback*. *Review of Educational Research*, 77(1), 81-112.
15. Jacoby B. (1996). *Service-Learning in Higher Education: Concepts and Practices*. San Francisco: Jossey-Bass.
16. Johnson D.W., Johnson R.T. (1994). *Cooperative Learning: Methods and Techniques*. In C. B. Paulsen (Ed.), *Cooperative Learning in Higher Education* (Vol. 1, pp. 31-44). Burlington, VT: Anker Publishing Company.
17. Krajcik J.S., Blumenfeld P.C. (2006). *Project-Based Learning*. In R. K. Sawyer (Ed.), *The Cambridge Handbook of the Learning Sciences* (pp. 317-334). Cambridge University Press.
18. Thomas, J. W. (2000). *A Review of Research on Project-Based Learning*. Retrieved from [Buck Institute for Education] (<http://www.bie.org>).